



МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ TASHKILOTI TARBIYALANUVCHILARIDA O'Z-O'ZINI BOSHQARISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH

To'ymurodova D.D.

Buxoro pedagogika instituti tayanch doktaranti

Tayanch so'zlar: texnologiya, STEAM, TRIZ, ta'lim, tarbiya, ko'nikma, o'z-o'zini boshqarish, faoliyat, jarayon, salohiyat, metod, usul, innovatsiya, samaradorlik, takomillashtirish, muhit, omil, vosita, imkoniyat.

Ключевые слова: технология, STEAM, ТРИЗ, образование, обучение, навык, самоуправление, деятельность, процесс, потенциал, метод, метод, инновация, эффективность, улучшение, среда, фактор, инструмент, шанс.

Key words: technology, STEAM, TRIZ, education, training, skill, self-management, activity, process, potential, method, method, innovation, efficiency, improvement, environment, factor, tool, chance

РЕЗЮМЕ:

Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarda o'z-o'zini boshqarish ko'nikmasini shakllantirishda yordam beradigan vositalar, innovatsion pedagogik metodlar va texnologiyalarning samaradorligi, ta'lim va tarbiyaning mazmuni, ta'limiy faoliyatini yanada takomillashtirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik jarayonni tashkil etishning maqsadi va vazifalari, maktabgacha ta'lim tizimida qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar haqida so'z boradi.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье рассмотрены средства, способствующие формированию навыков самоуправления в дошкольных образовательных организациях, эффективности инновационных педагогических методов и технологий, содержанию образования и воспитания, дальнейшему совершенствованию образовательной деятельности, в дошкольных образовательных организациях цель и обсуждаются задачи организации педагогического процесса, педагогические технологии, используемые в системе дошкольного образования.

SUMMARY:

In this article, tools that help in the formation of self-management skills in preschool educational organizations, the effectiveness of innovative pedagogical methods and technologies, the content of education and upbringing, further improvement of educational activities, in preschool educational organizations the purpose and tasks of organizing the pedagogical process, the pedagogical technologies used in the preschool education system are discussed.



Bugungi kunda o‘sib kelayotgan yosh avlodni har jihatdan mukammal, barkamol, keng dunyoqarashga, immuniteti mustahkam, ijodiy tafakkur, intellektual salohiyatga ega bo‘lgan shaxslar etib tarbiyalashimiz zarur. Vatanimiz kelajagi bo‘lgan yoshlarni bilimdon, ma‘naviy kamol topgan, g‘oyaviy yetuk insonlar qilib tarbiyalash hozirgi zamon pedagoglar-tarbiyachilar va ota-onalar qarshisiga qo‘yilgan dolzarb vazifalardan biridir.

Bola dunyoga kelgan kundan 7 yoshiga qadar aynan uning aqliy faolligi oshib boradi, ruhan, axloqiy-estetik va jismoniy xislatlar shakllanadi. Shu bois ham bu davrga diqqatli bo‘lmoq tavsiya etiladi. Bola hayotidagi eng muhim davr sanaladi bu yosh. Bugungi globallashuv davrda maktabgacha ta‘lim sohasini rivojlantirish borasidagi strategik maqsadimiz – ijtimoiy ahvolidan qat‘i nazar, maktabgacha yoshidagi har bir bolani ushbu ta‘lim yo‘nalishi bilan to‘liq qamrab olish uchun zarur sharoitlarni yaratishdan iboratdir.

Kelajagimiz poydevori bo‘lmish yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash, xalqimizning azaliy orzusi bo‘lib, ajdodlarimiz madaniyatni qanday qilib yosh avlodga o‘rgatish, ularni komillikka yetaklash yo‘llari, qonun-qoidalarini muttasil o‘rganib izlaganlar.

Ta‘lim va tarbiyaning mazmuni, vositalari, metodlari bolalarning rivojlanish jarayoni, ularning yoshi bilan izohlanadi albatta. Jumladan, kichik yoshdagi bolalar bilan ish olib borganda ulaning mustaqil hayotga butunlay moslashmaganligi hisobga olinadi. Keyingi yosh guruhlarida maktabgacha yoshdagi bolaning mustaqilligi, o‘zini-o‘zi boshqara olishi va ijtimoiy muhitlarga anchagina moslashib borishi, shunga muvofiq tarzda ta‘lim-tarbiyaviy ishlar, ularga beriladigan topshiriqlar, vazifalar mazmuni, vositalari va metodlari o‘zgartirib boriladi.

Barchamizga ma‘lumki, maktabgacha yoshdagi bolalarning ta‘lim tashkilotlari sharoitlariga moslashuvining o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Bola hayotning dastlabki yillaridan boshlab ijtimoiy muhitlar yangilanib boradi, maktabgacha ta‘lim tashkilotiga qadam qo‘yishi, undan shu paytgacha shakllanib bo‘lgan yurish-turish qoidalarini o‘zgartirishni kabi talablar qo‘yila boshlaydi. Bola uchun bu jarayonlarning qulay va osonroq kechishi uchun ijtimoiy pedagog yordam ko‘rsatishi va bolalar hayotini har tomonlama qulay tashkil qilishda ishtirok etishi zarur. Shu tariqa bolaga mustaqillik, erkin fikr, o‘zini-o‘zi boshqara olishi qobiliyati, kirishuvchanlik, dadillik kabi hislatlar taqdim etiladi.

Bola tug‘ma oila muhiti, yurish-turish shakllariga ega emas va ijtimoiy muhitda rivojlanish mobaynida uch asosiy komponentni: hudud, vaqt, va



muomala shakllarini o'zlashtiradi. Demak, bola tug'ilishdanoq, uning faolligi, mustaqilligi "bola-kattalar" munosabatlari ichida tartibga solinar ekan.

Ma'lumki, maktabgacha yoshdagi bolalarning hatti-harakatlarining xarakterli jihati yuqori hissiyotchanlikdir. Bolada emotsional holatning qanchali rivojlanganligi va tarbiyalanganligi bog'liq. Odatiy hayot tarzining buzilishi, atrof-muhit ta'sining buzilishi birinchi navbatda, bolada emotsional holatnng buzilishiga olib keladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolani yangi muhitga ko'niktirish, ularda mustaqillik va o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini shakllantirishning eng muhim shartlaridan biri bu – o'yindir. O'yin bola faolligining asosiy va o'ziga xos shaklidir. Bu o'sib ulg'ayayotgan bolaning borliq, tabiat, atrof-muhit ob'ektlari haqida ma'lumot yig'ishiga, kattalarga tahlid qilishiga, va ular mehnati bilan tanishishga, faol, mustaqil harakat qilishiga, o'z fikrini erkin bayon etishda, tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda, uning muhit bilan o'zaro aloqasini shakllantiradigan faoliyat turidir. O'yinlarda bola bajara olmaydigan talablar qo'yilmaydi. O'yinlar bolalar ehtiyojlarini qondiradi va ularga zavqlanish hissini beradi. Bundan kelib chiqadiki, o'yin bola hayoti, madaniyati va faoliyatini tashkil qilish shakli sifatida, nafaqat o'z-o'zini boshqarish, o'rtoqlarini ergashtira olish, tashabbus bildirish, o'z menligiga erishishi uchun eng qulay vosita sanaladi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarida o'z-o'zini boshqarish ko'nikmasini shakllantirishda eng avvalo pedagogik jarayon to'g'ri tashkil etilishi ahamiyatli sanaladi. Bolaning yosh jihati inobatga olinib, uning qobiliyatlari, imkoniyatlarini inobatga olish, bolani ta'limga emas, ta'limni bolaga moslashtirish maqsadga muvofiqdir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik jarayonni tashkil etishning maqsadi va vazifalari haqida quyidagicha to'xtalamiz:

1. Har bir yosh guruhida bolalarni jamoatchilik ruhida tarbiyalash va ularning har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydigan bir xil shart-sharoitlar yaratish.

2. Bolalarni yosh guruhlariga taqsimlashda har bir guruhga faqat bir xil yoshdagi bolalarni tanlash va shunga qarab ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish.

3. Bolalarning har xil faoliyat bilan shug'ullanishlari va bir-birlari bilan muloqotga kirisha olishlari uchun zarur bo'lgan inklyuziv muhitni yaratish. Buning uchun guruh xonasi va maydonchani gigiyenik, pedagogik, estetik talablar darajasida kerakli asbob-anjomlar bilan ta'minlash.

4. Bolalarning yoshiga mos kun tartibiga rioya qilish va uning barqarorligini ta'minlash.



Bolalarning har xil faoliyatlarini ilmiy asoslangan tamoyillar asosida almashtirib borish bolalar bog‘chasining har xil yosh guruhlarida bolalar hayotini to‘g‘ri tashkil etishni ta‘minlaydi. Bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta‘minlashga qaratilgan pedagogik jarayon murakkab va rang-barangdir.

Bolalarni o‘z “Men”iga ega qilish, ularda o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmasini shakllantirishda ta‘lim-tarbiya ishining tashkiliy shakllari, bolalar faoliyatining har xil turlari: mashg‘ulotlarda ta‘lim berish orqali, ijodiy va qoidalari o‘yinlar, bolalarning mustaqil faoliyati, ularning o‘z mehnati va kattalar mehnati bilan tanishtirish, o‘z-o‘ziga xizmat qilish, sayrlar, gigiyenik tadbirlar orqali amalga oshiriladi.

Ta‘lim-tarbiya ishlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish bolalar bog‘chasidagi pedagogik jarayonning har bir faoliyat turini to‘g‘ri tashkil etishga bog‘liqdir. Bolalar bog‘chasining pedagogik jarayonida ta‘lim muhim ahamiyat kasb etadi va kundalik hayot, o‘yin, mehnat, mashg‘ulotlar orqali amalga oshiriladi. Mashg‘ulotda ta‘lim va tarbiya vazifalari hal etiladi. Bolalar tevarak-atrofdagi hayot va tabiat bilan tanishish, nutq o‘stirish, savod o‘rgatish, matematika, jismoniy madaniyat, tasviriy faoliyat, musiqa bo‘yicha eng oddiy tasavvur va bilimlarni, malaka hamda ko‘nikma sistemasini egallab oladilar. Bolalar egallab olishlari kerak bo‘lgan bilim, malaka va ko‘nikmalar maktabgacha ta‘limning “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturida belgilab berilgan bo‘lib, u bolalarning umumiy rivojlanishi va ularni maktab ta‘limiga sifatli tayyorlashda muhim ahamiyatga ega.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida ta‘limiy jarayonlar “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi asosida olib borilib, aynan rivojlantiruvchi muhit, kun davomidagi olib boriladigan barcha faoliyatlar, ta‘limiy, tarbiyaviy, bolani har tomonlama rivojlantirish jarayonlarida dasturga tayaniladi. Rivojlanish o‘ta murakkab harakat jarayoni bo‘lib, oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga, eski sifatlardan yangi holatlarga o‘tish, yangilanish, eskini yo‘qolib borishi, yangining paydo bo‘lishi, miqdor o‘zgarishining sifat o‘zgarishiga o‘tishini ta‘minlovchi harakatdir. Bola shaxsini rivojlanishida tabiat qonuniyatlari, biologik va ijtimoiy qonuniyatlar birgalikda ta‘sir etadi va qarama-qarshiliklar o‘rtasidagi kurashlardan rivojlanish jarayoni paydo bo‘ladi. Rivojlanishda esa tarbiya muhim jarayon hisoblanadi. Tarbiyaning jarayonlarini samarali ta‘sir etishi uchun har bir bolaning alohida xususiyatlari, o‘shish va rivojlanish qonuniyatlarini bilish va hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Shaxs rivojlanishida eng avvalo irsiyat, muhit, tarbiya va shu bilan bir qatorda inson faoliyati ham muhim ahamiyat kasb etadi.



Shaxs rivojlanishida inson faoliyati bu pedagoglarning bevosita ta'siri sanaladi. Tarbiyachi-pedagog dasturga asoslangan holda zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida, turli xildagi metodlar, usullar asosida ta'limiy faoliyatni tashkil etadi, bolaning shaxsiy kamolotida yetakchi o'rin tutadi.

Keling pedagogik texnologiyalar haqida so'zlashdan oldin bu termning izoh berib olaylik. Pedagogik texnologiya - bu bolaga ta'lim berishda yani o'qitishda o'ziga xos yangicha innovatsion yondoshuvdir. Pedagogik texnologiya – o'qitishning, ta'limning yangicha shakllari, metodlari, usullari, yo'llari, tarbiyaviy vositalarning maxsus yig'indisi va joylashuvini belgilovchi psixologik tartiblar majmuasi.

Ta'lim sohasiga e'tibor yanada kuchaytirilgan bir vaqtda zamonaviy pedagogik texnologiyalarga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Bugungi kun ta'limining eng asosiy innovatsion metodi va istiqbolli texnologiyasi bu - STEAM texnologiyasidir. Ko'pgina ta'lim tashkilotlarida ta'limning sifat samaradorligini oshirish maqsadida STEAM texnologiyasidan maqsadli foydalanib kelinmoqda.

STEAM texnologiyasi maktabgacha ta'lim va maktab yoshdagi bolalarni tarbiyalashda eng qulay dasturdir. Matabgacha ta'lim tashkilotlarida STEAM texnologiyasi asosida ta'limning tashkil etilishi, kelajakda bolaning innovatsion tadqiqotlarni mustaqil ravishda amalga oshira olishiga turtki bo'ladi.

Ushbu texnologiyani ta'limda qo'llanilishining maqsadi faoliyat jarayonida zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda, bolalarni ilmiy salohiyatini oshirish va texnik ijodkorlikka jalb qilish imkoniyati bilan intellektual qobiliyatini, ijodkorligini rivojlantirishdir.

TRIZ texnologiyasi - bolani "Hamma narsada ijodkorlik!" shiori ostida tarbiyalash va o'qitish imkonini beradigan texnologiya sanalib, ushbu texnologiyasidan foydalanishning maqsadi, bir tomondan, moslashuvchanlik, harakatchanlik, izchillik, dialektika, ikkinchi tomondan, qidiruv faolligi, yangilikka intilish, nutq va uni rivojlantirish kabi fikrlash fazilatlarini rivojlantirishdir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar uchun qo'llaniladigan bu texnologiya jamoaviy o'yinlar tizimidir. Bu o'yinlar tizimi dasturni amaliyotda joriy etilishda samaradorlikni oshirish uchun xizmat qiluvchi faoliyatlar yig'indisi sanaladi.

TRIZ texnologiyasidan foydalanish bolalarda o'z imkoniyatlarini namoyon etish, o'zining kashfiyotlaridan quvonchni his etish, uddalay olishiga ishonish kabi hissiyotlarni bolada shakllantiradi. Bolalarning ijodiy va aqliy faoliyati



sezilarli maksimal faollashadi. Bolani keng fikrlashga, tashabbus bildirishga va muammoning yechimini topishga o'rgatadi.

Ta'lim va tarbiyaning mazmuni, vositalari, metodlari bolalarning rivojlanish jarayoni, ularning yoshi bilan izohlanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsiyalar ta'limiy-pedagogik jarayonlarda muntazam qo'llar ekanmiz, bolaning shaxsiy imkoniyatlari, menligi, yosh jihatlarini va uning maxsus qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan metodlar, texnologiyalarga diqqat qaratish maqsadga muvofiqdir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bilamizki, bolani to'laqonli tarbiyalashda, faoliyatda innovatsion texnologiyalardan foydalanishda, predmetli muhitni yaratish juda ham muhimdir. Bunday predmetli muhiti - bola faoliyati, uning shaxsini to'laqonli rivojlanishini ta'minlovchi sharoitlar tizimidir. Predmetli muhiti bolalarning rivojlanishi uchun kerak bo'lgan bazaviy tarkibiy qismlarni o'z ichiga qamrab oladi.

Xulosa qilib aytganda, nafaqat STEAM texnologiyasi, TRIZ texnologiyasi, balki, bolalar ta'limiy faoliyatini yaxshilashga qaratilgan barcha innovatsion pedagogik texnologiyalar bolani mustaqil hayotga tarbiyalaydi, farovon hayot sari yetaklaydi. Ularda o'zini-o'zi boshqarish ko'nikmasin shakllanishida, o'z meniga ega bo'lishida, tanqidiy fikrlashida, ijodiy faolligida asos bo'lib xizmat qiladi. Shiddat bilan rivojlanib borayotgan bugungi zamonaviy ta'lim davrining mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash uchun xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. E.A. Migranova, Sh.X. Poziiova Kasbiy pedagogik faoiyatga kirish / O'quv qo'llamna. - Toshkent: "Tafakkur bo'stoni", 2018 y. - 200 bet
2. S.I.Mirhayitova Pedagogik texnologiya. O'quv qo'llanma. – Toshkent: 2020 y. - 200 bet
3. F.Qodirova, Sh.Toshpo'latova, N.Kayumova, M.A'zamova. "Maktabgacha pedagogika".-T., "Ma'naviyat". 2019 y.- 688 b
4. N.M.Qayumova "Maktabgacha pedagogika". "TDPU" nashriyoti T.: 2013 y. -183
5. M.E. Axmedova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. (Pedagogika tarixi). O'quv qo'llanma. O'zR oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: Tafakkur bo'stoni, 2011y. -128 bet.
6. K.Turg'unboyev, M.Tolipov, I.Oxunov "Ijtimoiy pedagogika asoslari" O'quv qo'llanma. Toshkent "Fan va texnologiya" 2008 y.
7. N.T. Omonov, N.X. Xo'jayev, S.A. Madyarova, E.U. Eshchonov. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Darslik.– T.: "Iqtisod-moliya" 2009 y. – 240 bet
8. Raxmonova S.M. "Preparing the graduate students of primary education for innovative professional activity". Web of Scientist: International Scientific Research Journal (WoS) ISSN: 2776-0979, Volume 4, Issue 8, August, 2023 y. P 288-293.
9. Raxmonova S.M. "In improving the innovative professional activity of future pedagogues, problem-based learning the most effective method of teaching". Science and technologies. 2023 y. № 3 (1). P 107-112.
10. Raxmonova S.M. "Practical features of preparing primary education students for professional activity" Science and innovation in the education system, 2 (9), 2023 y. P 67-71.